



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No 7**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'aurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	16
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	20
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....	23
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	27
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiyo o'yinlarning ahamiyati .	31
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	34
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'naliishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	37
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....	41
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ....	44
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	53
Isayeva Mushtari Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	56
Mavlanova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	60
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar assosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish:	
bosqichlar va tamoyillar .....	65
Norboyeva Moxigul Shakhat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	68
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:	
a Review of Recent Literature .....	73
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga	
qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi	
(9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) .....	81
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	85
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной	
письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	88
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari	
raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	93
Jonibekov Jasur Jonibekovich	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	98
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	

# PEDAGOGIK JARAYONDA AXLOQIY QARASHLARNI SHAKLLANTIRISH USUL VA VOSITALARI

Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna

O'zbekiston–Finlyandiya pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lif kafedrasini dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy qarashlarni shakllantirishning usul va vositalari tahlil qilingan. Unda pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni rivojlantirishning kasbiy rivojlanish, shaxsiy va ijtimoiy etuklikka erishishdagi ahamiyati yoritilgan. Har bir nazariyaning maqsad va tamoyillari shaxsnинг ijtimoiy munosabatlarda axloqiy qadriyatlarga sodiq qolishidagi o'mni bilan bog'liq holda tahlil etilgan. Maqolada neyropedagogik yondashuv asosida axloqiy tarbiyaga oid qo'llaniladigan metod va usullar ham ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** axloqiy tarbiya; axloqiy qarashlar; usul; metod; kognitiv rivojlanish nazariyasi; pedagogik jarayon; sotsializatsiya; neyropedagogika; bo'lajak o'qituvchilar.

**Abstract:** This article analyzes the methods and tools for shaping moral perspectives in prospective teachers. It emphasizes the significance of developing moral values within the pedagogical process as a foundation for professional development, personal growth, and social maturity. The objectives and principles of each theory are examined in relation to their influence on individuals' adherence to moral values in the context of social interactions. The article also presents methods and techniques used in moral education based on a neuro-pedagogical approach.

**Key words:** moral education; moral perspectives; methods; tools; cognitive development theory; pedagogical process; socialization; neuro-pedagogy; prospective teachers.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы методы и средства формирования нравственных взглядов у будущих учителей. Раскрывается значение развития моральных ориентиров в педагогическом процессе как основы профессионального становления, личностной и социальной зрелости. Цели и принципы каждой теории рассматриваются с учётом их влияния на приверженность личности нравственным ценностям в контексте социальных взаимодействий. Также представлены методы и приёмы нравственного воспитания на основе нейропедагогического подхода.

**Ключевые слова:** нравственное воспитание; нравственные взгляды; методы; средства; теория когнитивного развития; педагогический процесс; социализация; нейропедагогика; будущие учителя.

## KIRISH

Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni rivojlantirish – shaxsnинг ma'naviy etukligini ta'minlash va uni jamiyatda faol hamda mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon orqali o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish mumkin bo'lib, bu ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotda mustahkam prinsiplar asosida yashashini ta'minlaydi. Axloqiy qarashlar insonni nafaqat shaxsiy manfaatlar, balki jamiyat manfaatlari yo'lida ham mas'uliyatli harakat qilishga yo'naltiradi. Shu nuqtai nazardan pedagogik jarayon axloqiy qarashlarni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi, chunki u orqali o'quvchilar axloqiy poydevorini mustahkamlash uchun zarur sharoitlarga ega bo'ladilar.

Axloqiy qarashlarni shakllantirishda pedagogik jarayon insonning ma'naviy shakllanishi uchun yetakchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon faqatgina bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsni axloqiy etuklik sari yetaklovchi tarbiyaviy tizimni ham qamrab oladi. O'quvchilar uchun axloqiy qoidalar, qadriyatlar va prinsiplarni tushunish, ularni amalda qo'llash ham muhimdir. Nazariy bilimlar etarli bo'limgan holatlarda, pedagogik jarayon ularni amaliy ko'nikmalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Aynan shu yo'nalishda yoshlar real hayotiy vaziyatlarda axloqiy qaror qabul qilishga tayyorlanadi.

Axloqiy tafakkur pedagogik mahorat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ko'nikmalar ustozlar tajribasini o'rganish, shuningdek, o'z hayotiy va kasbiy faoliyati davomida shakllanib boradi. O'qituvchining ma'naviy etuklik darajasi, muloqot madaniyati, psixologik bilimlari, shuningdek, o'z ustida tinimsiz ishlashi orqali yuksaladi. Bu jarayonda o'quvchilar yosh xususiyatlari va ularning individualliklarini hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining ushbu jarayondagi roli alohida e'tiborga molik. U nafaqat axloqiy bilimlarni o'rgatadi, balki o'zining shaxsiy xulqi, madaniyati va odob-ahloqi bilan ham o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi inson-parvarlik, xolislik, mas'uliyat va hurmat kabi qadriyatlarni amalda namoyon etib, o'quvchilar uchun namunaviy shaxs sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun o'qituvchining shaxsiy fazilatlari axloqiy tarbiyada hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Muallimlar tomonidan ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, yoshga mos ijtimoiy vaziyatlarni axloqiy jihatdan talqin etish orqali o'quvchilarda insoniylik, javobgarlik va hurmat hissi shakllantiriladi. Shuni unutmaslik lozimki, axloqiy qadriyatlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarga mos ravishda yangilanib boradi, ammo ularning asosiy tamoyillari doimiy va universaldir. "Biz, – deb yozadi J.-P. Sartr, – har bir alohida hodisada erkinlikning o'zi uchun mavjud bo'lismeni istaymiz. Shu sababli, axloq mazmuni o'zgarib tursa-da, uning muayyan shakli universaldir".

Pedagogik jarayonda hayotiy misollar va amaliy tajribalar orqali axloqiy qarashlarni shakllantirish nazariy tushunchalarni amaliyotga integratsiyalash bilan kuchaytiriladi. Masalan, tarixiy shaxslar hayotini o'rganish, madaniy qahramonlar faoliyatini tahlil qilish o'quvchilarga axloqiy qarorlarni to'g'ri qabul qilish va ularni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, pedagogik jarayon yoshlar ongida ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Muallimlar o'quvchilarga jamoada hamjihatlikda yashash, o'zları va atrofdagilar oldidagi mas'uliyatni his qilishni o'rgatadilar. Amaliy uslublar orqali o'quvchilar boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashishga, o'z nuqtai nazarini asoslab ifoda etishga va samarali muloqotga tayyor bo'ladilar. Bu esa ularga turli hayotiy vaziyatlarda axloqiy jihatdan to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik jarayon axloqiy qarashlarni rivojlantirishda nafaqat ta'limiy, balki ma'naviy-axloqiy kamolot tizimi sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayon orqali yoshlar axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy jihatdan etuklikka erishadilar, hayotda mustahkam qadriyatlarga tayanishga o'rganadilar.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axloqiy qarashlarni shakllantirish pedagogik jarayonning markaziy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Abdulla Sh. va Husanov axloqiy qadriyatlarning shakllanishi kishining ma'naviy rivojida asosiy o'r'in tutishini ta'kidlaydi; bu jarayonda o'qituvchining shaxsiy namuna bo'lishi hal qiluvchi omildir.

L.S. Vigotskiy axloqiy tafakkurning rivojini ijtimoiy muhit va til orqali shakllanadigan psixik tizimlar bilan bog'lab tushuntiradi. Unga ko'ra, axloqiy ong muloqot va ta'limiy tajriba orqali rivojlanadi.

E. Yusupov inson kamoloti asosida yotuvchi ma'naviy tamoyillarni aniqlab, tarbiyaning axloqiy jihatini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

C.R. Rogers shaxsning axloqiy shakllanishini insoniy munosabatlar va empatiya bilan bog'laydi; uningcha, o'qituvchi shaxsiy samimiylik orqali o'quvchiga axloqiy yo'nalish bera oladi.

A. Maslow axloqiy rivojlanishni insoniy ehtiyojlar ierarxiyasi doirasida qarab, o'zini oqlash, hurmat va o'zlikni namoyon etish bilan bog'laydi.

J. Piaget esa bolalar axloqiy tafakkurining rivojlanish bosqichlarini ochib bergan holda, axloqiy qarorlar yoshga va kognitiv rivojlanishga bog'liqligini asoslaydi.

E. Durkheim axloqni ijtimoiy intizom va me'yorlar tizimi sifatida ko'rib, uni jamiyat barqarorligining muhim omili deb baholaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda axloqiy qarashlarni shakllantirishga oid ma'lumotlar asosan ilmiy-nazariy manbalar tahlili asosida jamlandi. Asosiy e'tibor falsafiy-pedagogik adabiyotlar, psixologik tadqiqotlar va ilg'or amaliy tajribalarni o'rganishga qaratildi. Ma'lumotlar kontent tahlili usuli orqali tizimlashtirilib, ularning amaliyotdagi qo'llanilish imkoniyatlari baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish uchun quyidagi asosiy usul va vositalardan foydalananish mumkin (1-jadval):

**1-jadval: Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari**

Usul/Vosita	Tavsifi	Amaliy ahamiyati
Ma'naviy mavzular bo'yicha suhbatlar	Axloqiy mavzularda suhbat va munozaralar o'tkazish, turli axloqiy qarashlarni tahlil qilish	O'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, turli nuqtai nazarlarga hurmat bilan yondashishni o'rgatadi
Tarixiy va madaniy qahramonlar misoli	Buyuk tarixiy shaxslar yoki madaniy qahramonlar hayotini o'rganish va ularning faoliyatidan ibrat olish	O'quvchilarda ibratli shaxslarning axloqiy qadriyatlarini qabul qilishga undaydi, ularning xulqini o'rnak sifatida qabul qilishga yo'naltiradi
O'rnak ko'rsatish va muallimning namunasi	Muallimning shaxsiy xulqi, axloqiy prinsiplari va odob-ahloqi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish	Muallim o'quvchilar uchun hayotiy namunaga aylanib, axloqiy qarashlarni amaliy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi
Ijtimoiy masalalarni muhokama qilish	Jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni o'rganish va axloqiy jihatdan tahlil qilish	O'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyat hissini oshiradi, adolat va insonparvarlik tushunchalarini rivojlantiradi
Tarbiyaviy o'yinlar va holatlari mashg'ulotlar	Axloqiy masalalarni qamrab olgan o'yinlar yoki holatlarni modellashtirish orqali qaror qabul qilishni o'rgatish	Amaliy tajriba orqali axloqiy qarashlarni sinash, qaror qabul qilish va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi
Axloqiy mavzularda esse va ijodiy mashqlar	Esse yozish yoki ijodiy topshiriqlar orqali axloqiy mulohazalarni erkin ifoda etish	O'quvchilarning yozma va og'zaki fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, axloqiy tushunchalarni chuqur anglashga yordam beradi

Ushbu usul va vositalar axloqiy qarashlarni tarbiyalash jarayonini samarali va ta'sirchan tashkil etishga xizmat qiladi. Har bir usul o'quvchilarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda o'ziga xos o'rinni tutib, shaxsiy va ijtimoiy etuklik sari yetaklaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy qarashlarni shakllantirish ularning kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy javobgarlikka ega etuk shaxslar bo'lib kamol topishlari uchun muhim ahmiyatga ega. Axloqiy qarashlar yosh pedagoglarning nafaqat shaxsiy hayotida, balki professional faoliyatida ham ustuvor tamoyillarni belgilab beradi, ularning o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini oshiradi. Axloqiy qadriyatlarga ega o'qituvchilar ta'limgarayonida to'g'ri munosabatlar va insoniy qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning kasbiy etikasi va muvaffaqiyatli faoliyatining poydevorini tashkil etadi.

Shaxsiy va kasbiy barqarorlikka ega bo'lgan o'qituvchilar mehr, adolat, halollik kabi qadriyatlarni ta'limgarayoniga kiritib, o'quvchilar bilan xolislik asosida muloqot olib boradilar. Bu holat o'quvchilarning o'qituvchiga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi va pedagogik muhitda samimiylikni kuchaytiradi. Axloqiy qarashlar bilan qurollangan pedagog o'quvchilarga ruhiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatadi, ularning har bir qiyinchiligiga befarq bo'lmaydi va ijobiy namuna bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy qarashlari nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligi va istiqboli uchun ham zarurdir. Axloqiy tamoyillarga sodiq pedagoglar yosh avlodni yuksak insoniy qadriyatlarga yo'naltiradi, ularning ma'naviy yetuklikka erishishida muhim rol o'ynaydi.

Shu munosabat bilan quyidagi metodik tavsiyalar amaliyatda samarali hisoblanadi:

1. Axloqiy mavzular bo'yicha munozaralar tashkil etish – o'quvchilar o'rtasida bahs va fikr almashish orqali axloqiy masalalarni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarga hurmat bilan yondashishni shakllantirish.
2. O'qituvchining shaxsiy namunasi – axloqiy qadriyatlarga asoslangan faoliyat orqali hayotiy ibrat ko'rsatish va ushbu qadriyatlarni amaliy jihatdan singdirish.
3. Hayotiy holatlarni modellashtirish – axloqiy masalalarni qamrab olgan holatlari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda qaror qabul qilish va mas'uliyat hissini rivojlantirish.
4. Tarixiy va madaniy qahramonlar hayotini o'rganish – buyuk shaxslar faoliyatidan ibrat olish, ularning axloqiy qarashlarini anglab yetish.
5. O'quv jarayonida ijtimoiy masalalarni muhokama qilish – jamiyatdagi dolzarb muammolarni axloqiy kontekstda tahlil qilish va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirish.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Umuman olganda, axloqiy qarashlarni rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi, shaxsiy va ijtimoiy etuklikka erishishlari uchun muhim omil hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan bo'lajak pedagoglar ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish bilan kifoyalanmay, balki o'quvchilarning insoniy fazilatlarini shakllantirishda ham faol ishtirok etadilar. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarga to'g'ri yo'nalish ko'rsatish, ularning ma'naviy va ijtimoiy kamolotiga hissa qo'shish orqali o'z kasbiy missiyasini to'laqonli amalga oshiradilar.

Shu sababli, axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagogik faoliyatda metodik yondashuvlarni doimiy takomillashtirib borish lozim. Bu esa axloqiy tarbiyaning tizimli va natijador bo'lishiga, yosh avlodning ongli va mas'uliyatli fuqarolar sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdulla Sh., Husanov. Axloq falsafasi. Nafosat falsafasi. Darslik. – T.: Zebo prints, 2018.
2. Vigotskiy L.S. Mishleniye i rech. Moskva: Gosudarstvennoye sotsialno-ekonomicheskoye izdatelstvo, 1934. – S. 97.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. Toshkent: Universitet, 1998. – 38-b.
4. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin, 1961. – P. 45.
5. Maslow A.H. Motivation and Personality. New York: Harper & Row, 1954. – P. 91.
6. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. New York: Free Press, 1932. – P. 84.
7. Durkheim E. The Division of Labor in Society. New York: Free Press, 1933. – P. 398.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.